

Amir Temur g'arb va O'zbekiston olimlari nighida

Ilmiy rahbar-T.f.n. dots. A.Boltayev

Tarix 1-kurs magistranti S.Qobulov

Annotatsiya: maqolada Amir Temur shaxsi, uning ulkan saltanat tuzishdagi roli hamda dunyo afkor ommasi tomonidan e'tirof etilishi haqida bayon etilgan.

Аннотация: В статье рассказывается о личности Амира Темура, его роли в построении великой империи и признании его мировым общественным мнением.

Annotation: The article describes the personality of Amir Temur, his role in building a great empire and his recognition by the world public opinion.

Kalit so'zlar: Amir Temur fenomeni, ulkan saltanat, savdo-sotiq, Samarqand, davlat boshqaruvi

Keywords: The phenomenon of Amir Temur, the great kingdom, trade, Samarkand, public administration

Ключевые слова: Феномен Амира Темура, великое царство, торговля, Самарканд, государственное управление

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ulug' Sohibqiron shaxsiga bo'lgan hurmat va ehtirom beqiyosdir. Chunki, Sohibqiron Amir Temur, davlat va jamiyat boshqaruvida adolat o'rnatish va el-yurt manfaati yo'lida butun borlig'ini, hattoki o'z jonini beradigan hukmdorlar, davlat arboblari toifasiga kiradi. Buni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti **I.A.Karimovning** quyidagi so'zlaridan ham bilib olish mumkin: **«Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deydilar. Bunga qo'shimcha qilib sohibqiron bobomizning suronli hayotini hayol ko'zgidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin»¹**

Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe' tutmaydi. U o'z

¹ I.Karimov "Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan nutq", 1996-yil 18-oktyabr, Toshkent. /

I.Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi" 5-tom- T., 1997. 167-bet.

poytaxti bo`lmish Samarqandni yer yuzining chinakam madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi. Bu ulug' zot qurdirgan me'morchilik va xalq san'atining javohirlari yanglig' bugungacha qad ko'tarib turgan osori atiqalar shahar va qishloqlarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib kelyapti. Sohibqiron zamonasining ajoyib diplomati, dushmanlar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishi va savdoiqtisodiy aloqalar rivojlanishining tarafdori sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hakimlar, me'morlar va shoirlarning buyuk homiysi sifatida dong chiqargan.

Shu o'rinda sharqshunos rus olimi, professor **A.Ye Snesevning** (Snesev Andrey Yevgenevich, 1865-1937) fikri ham e'tiborga sazovordir. Ma'lumki, **A.Ye Snesev** Amir Temurning sarkardalik, tashkilotchilik faoliyatini o'rganishga g'oyat qiziqib qaragan yirik harbiy arbob ham edi. U Yevropa tarixnavisligi namoyandalarining «Osiyoning xaqli ravishda shuhrat qozongan harbiy yo'l boshchilarini kamsitib», Amir Temur kabi atoqli sarkardalarni «mamlakatni shafqatsizlarcha vayron etgan», «qonxo'r», «telbanamo» kimsalar qatoriga qo'shishlarini g'arazguylik, g'ayriilmiy tarzda biryoqlama yondashish deb baholadi». Masalaning tafsilotiga berilmay, buni «o'ta ketgan anglashilmovchilik yoki noxaqlik» deb hisoblashga ijozat bergaysiz», deb yozgan edi.

Atoqli temurshunos fransuz olimlari **Du Senksyon, Al'fons De Paparti, L.Lyangle** Amir Temur shaxsi hamda uning olib brogan ichki va tashqi siyosati haqida juda ko'plab iliq fikrlarni bildirishgan, shu bilan birgalikda, mashhur nemis mutafakkiri Gammer ham Sohibqironning ajoyib fazilatlarini shunday ta'riflaydi "Temurni Aleksandr Makedonskiy bilan tenglashtirish kerak. Bu taqqoslash ularning hayot yo'llari va erishgan yutuqlari nuqtayi nazaridangina emas, balki ularning insoniyligi, istilo qilinganyerlari ko'lami, jasurliklari va ularning kamsuqumliklari jihatidan ham o'xshashligidir"²

Arab qadimshunosi **Muiniddin Natanziy** ulug' Sohibqironning ichki muhitda olib brogan siyosatiga shunday ta'rif beradi: «Amir Sohibqiron ilmu hikmat ahli va fan arboblari bilan g'oyatda ulfatlashgan edi. Ularni e'zozu ikrom qilishda

² Hamdam Sodiqov "Amir temur hayotidagi g'aroyibotlar". "Art Flax" Toshkent-2007. 277-bet.

mubolag'alar ko'rsatardi. Tarix kitoblarini eshitish orqali ummatlar nasabi va sharhi hollarini, Turk, Arab va Ajam podshohlarini va bu ilmning boshqa tarmoqlarini juda chuqur egallagan edi. «...yana uning majlisida ilmiy masalalar bahsi juda ko'p bo'lib turardi. Nozik masalalar bahsida ustunlikka erishar, aksar hollarda u ko'rsatgan yechim asosli va to'g'ri bo'lardi. Tib va nujum ilmlarining mashhur masalalarida yetarli ma'lumotga ega edi».³

Amir Temur saroyida bo'lgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z bitiklarida Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: “Temur bu shaharning gullab-yashnashini hoxlardi, u qaysi yurtni egallamasin, u yerdan odamlarni bu yerga yashashi uchun olib kelar, ayniqsa turli yo'nalishlardagi ustalarni yig'ishga harakat qilardi”. Huddi shunday obodonchilik ishlari to'g'risida taniqli sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold: “ Temur go'yo Samarqanddan boshqa hamma yerda vayrongarchilik bilan shug'ullangan degan fikr mubolag'ali: u Kobul vodiysi va Mug'an cho'li kabi Samarqanddan uzoq bo'lgan joylarda ulkan sug'orish ishlari olib bordi”, - degan tarixiy jihatdan g'oyat qimmatli fikrni aytib o'tgan. Bu fikrga muqoyasa qilib Ali Yazdiyning yozishmasini keltirish maqsadga muvofiqdir. “Bir yil mabaynida, - deb yozadi o'rta asr tarixchisi Ali Yazdiy,- Bog'dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o'z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak atrofida dehqonchilik o'ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yoyilsin. Bu vazifa amirzoda Abu Bakrga topshirildi”.

IX asrning birinchi yarmida Piterburgda xizmat qilgan fransuz sharqshunosi M.Sharmua Amir Temurning 1391-yildagi To'xtamishga qarshi yurishini batafsil yorituvchi katta asar tayyorlab, nashr qildi. Sharmua o'sha paytda Nizomiddin Shomiyning Fransiyada hali ma'lum bo'lmagan kitobidan tashqari, shu masalaga oid bir qancha manbalarga tayandi. Sharmua bu asarlarni fransuz tiliga tarjima qildi. Sharmuaning kitobi 1391 yilgi yurish tarixini o'rganish uchun hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shu yo'sinda taniqli rus olimi A.Yu.Yakubovskiy “Temurning To'xtamish ustidan qozonganbu g'alabasi nafaqat

³ Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O'zbekiston”-2011.

Markaziy Osiyo va Sharqiy Ovro'pa, balki Rusiya uchun ham kata ahamiyatga molik bo'ldi" - deb yozgan edi.

Ko'pgina rus tarixchi olimlari, shu jumladan T.M.Granovskiy (1813—1855) ham Amir Temur shaxsiga qiziqdilar. Granovskiy «jahon tarixining buyuk «arboblari»dan biri bo'lgan Amir Temur «horib charchash nimaligini bilmaydigan faoliyat sohibi» ekanini to'g'ri ta'kidlab o'tdi, biroq ayni vaqtda Amir Temurning «muayyan va aniq idrok etilgan siyosiy maqsadi bo'lmagan edi», degan noto'g'ri fikrga bordi, bu fikr Sohibqiron tarjimai holining haqiqiy voqealariga mos kelmas edi.

Taniqli rus tarixchisi S.M.Solov'yev (1820-1879) ham Amir Temur shaxsiga e'tibor bilan qaradi. Uning ta'kidlashicha, Amir Temurning harbiy qo'shinlari o'jar va betayin To'xtamishga qarshi kurashda «Rossiya hududlariga kirib, Eletsni ishg'ol qildi». Solov'yev XIV asr o'rtalarida tarix sahnasida paydo bo'lgan Amir Temur «1371 yilda Kaspiy dengizidan Manjuriyagacha bo'lgan yerlarni qo'lga olganligi» dan iborat unutilmas voqeani ta'kidlab o'tadi. Uning tan olishicha, Amir Temur tomonidan tor-mor etilgan Oltin O'rda uzoq vaqtgacha Moskva knyazligiga xavf sola olmadi..."

Xiva ekspeditsiyasida qatnashgan podpolkovnik Mixail Ignat'yevich Ivanin (1801-1874) ning o'zining "Mo'g'ul-totlar va O'rta Osiyo xalqlarining Chingizxon hamda Amir Temur davrlaridagi harbiy san'atlari va istilolari haqida" nomli asarida Amir Temurning sarkardalik san'ati asoslarini manbalar va qo'llanmalar asosida mufassal bayon etib beradi. Hamda ushbu so'zlarni ko'tarinki tarzda bayon etadi; "Hech bir xalq mo'g'ul-tatarlar chingizxon davrida va O'rta Osiyo xalqlari Amir Temur davrida bosib olgan hududlari kabi bepoyon hududlarni bosib ololmagan va bu ishda ularerishgan tezkorlikka erisholmagan"⁴.

Albatta sobiq sho'ro davrida ham ma'lum ma'noda Sohibqironga atalgan asarlar yozildi. Jumladan, 1968-yil akademik I.M.Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" risolasi nashr etildi . Bu asar Temur

⁴ M.I.Ivanov "ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur, harbiy san'ati, strategiyasi va taktikasi". Yangi asr avlodi. Toshkent. 2018. 10-bet

shaxsiga biryoqlama qarashlarga qarshi yozilgan ilmiy asar sifatida dastlabki urinish edi. Ammo, bu asar Moskvadagi yuqori idoralar va matbuot organlari tomonidan qoralandi va asar muallifi benihoya aziyatlar chekdi.

Shu yo'sinda t.f.n. dots. Omonulla Bo'riyev ham o'zining "Sohibqiron Amir Temur" asarida Temurning ichki siyosatiga to'xtalib shunday yozgan edi: "Amir Temur buyuk saltanat tuzgach, uni hududiy-ma'muriy jihatdan viloyatlar va tumanlarga taqsimlab, idora qilishda suyurg'ol tizimidan keng foydalandi. O'zi egallagan mamlakatlarning ayrimlarini boshqarishni o'sha joyning o'z hukmdorlariga qoldirgandi".⁵ Sohibqironning tashqi siyosatdagi tantiligini hatto Hamdam Sodiqov o'zining Amir Temur hayotidagi g'aroyibotlat" asarida shunday ta'riflaydi: - "Temurbek turk sultoni uni qanday haqorat qilganiga qaramay unga shohlarga xos himmat ko'rsatdi. Poytaxtida yashashiga ruxsat berdi, undan izzat ikromini ayamadi"⁶

Xulosa qilib aytganda, Buyuk Sohibqironning butun deyarli butun umri jangohlarda va safarlarda o'tdi. Bu davr ichida Sohibqiron o'zining keng dunyoqarashi, teran fikrlashi, barcha ishlarda "adolat" tamoyilini ustuvor qo'yganligini anglab yetamiz. Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o'rinda turadi. Ulug' bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o'lchov bilan baholab bo'lmaydi. Haqiqatdan ham, oradan 685 yil o'tibdiki, buyuk Sohibqiron siymosi nafaqat xalqimiz, qolaversa, dunyo axlini ham xayratga solib kelayotganligi yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol tasdig'idir. Amir Temur ana shunday tarixiy va unutilmas shaxsdir. G'arbiy Evropaning ilg'or mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e'zozlab o'quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Shunday ekan bugun yoshlarimiz ko'z o'ngida buyuk bobokolonimiz siymosini gavdalantirish eng muhim va dolzarb vazifa ekan, biz tadqiqotchilarning

⁵ Omonulla Bo'riyev "Sohibqiron Amir Temur" T. "O'zbekiston"-2011. 76-bet

⁶ Hamdam Sodiqov "Amir temur hayotidagi g'aroyibotlar". "Art Flax" Toshkent-2007. 279-bet.

asl vazifasi shu yo'nalishlarda muvaffaqiyatli ish olib borish eng yuksak vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan nutq, 1996-yil 18-oktyabr, Toshkent. /
I.Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi" 5-tom- T:, 1997. 167-bet.
2. Muiniddin Natanziy "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" T. "O'zbekiston"-2011.
3. Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. - М.: Международные отношения. - 1980. - 341 б.
4. Omonulla Bo'riyev "Sohibqiron Amir Temur" T. "O'zbekiston"-2011. 76-bet
5. M.I.Ivanov "ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur, harbiy san'ati, strategiyasi va taktikasi". Yangi asr avlodi. Toshkent. 2018. 10-bet
6. Hamdam Sodiqov "Amir temur hayotidagi g'aroyibotlar". "Art Flax" Toshkent-
2007. 279-bet.
7. Lyusen Keren "Amir Temur saltanati" T. Ma'naviyat 1999-yil.